



Farg'ona viloyatida

kichik tadbirkorlik



(dastlabki ma'lumotlar)

2020 – yil yanvar – iyun

- 2020-yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **61,5 %** ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **12,7** birlikni tashkil qildi.
- 2020-yilning yanvar-iyunida **2,7** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **41,1** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1114 ta, sanoatda 661 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 263 ta, qurilishda 221 ta, yashash va ovqatlanishda 80 ta, axborot va aloqada 80 ta tashkil etilgan.

2020 – yil yanvar – iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Yanvar – iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	27662	31183	3521
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	4622	2721	-1901
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	61,7	61,5	-0,2
Sanoat	%	36,4	37,4	1,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	98,0	96,6	-1,4
Investitsiya	%	64,1	69,4	5,3
Qurilish	%	89,7	90,6	0,9
Savdo	%	89,1	89,9	0,8
Xizmatlar	%	72,8	69,5	-3,3
Yuk tashish	%	95,1	94,3	-0,8
Yuk aylanmasi	%	96,7	95,5	-1,2
Yo'lovchi tashish	%	94,5	96,4	1,9
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,0	97,0	1
Eksport	%	54,1	58,7	4,6
Import	%	75,1	68,1	-7



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Farg'ona shaharda – 366 ta, Qo'qon shaharda – 329 ta, Marg'ilon shaharda – 281 ta, Oltiariq tumanida – 160 ta, Toshloq tumanida – 150 ta va Quva tumanida – 149 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich So'x tumanida – 59 tani tashkil etgan.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

	2019 – yil yanvar – iyun	2020 – yil yanvar – iyun	(+;-)
Farg'ona viloyati	4622	2721	-1901
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	691	366	-325
Qo'qon	530	329	-201
Quvasoy	148	125	-23
Marg'ilon	449	281	-168
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	279	160	-119
Qo'shstepta	137	73	-64
Bag'dod	177	119	-58
Buvayda	236	114	-122
Beshariq	139	79	-60
Quva	294	149	-145
Uchko'rlik	239	144	-95
Rishton	191	113	-78
So'x	60	59	-1
Toshloq	183	150	-33
O'zbekiston	220	113	-107
Farg'ona	227	110	-117
Dang'ara	225	104	-121
Furqat	110	63	-47
Yozyovon	87	70	-17



**2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko'ra yangi tashkil
topgan kichik korxona va mikrofirmalarning
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020 - yilning yanvar - iyun oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Farg'ona shahri - 13,5 %, Qo'qon shahar - 12,1 %, Marg'ilon shahar - 10,3 %, Toshloq tumani - 5,5 %, Quva tumani - 5,5 %, Uchko'prik tumani - 5,3 %, Quvasoy shahar - 4,6 %, Bag'dod tumani - 4,4 %. Buvayda tumani – 4,2 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar- iyun	2020 - yil yanvar- iyun	(+;-)
Jami	4622	2721	-1901
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	170	263	93
Sanoat	1163	661	-502
Qurilish	294	221	-73
Savdo	2191	1114	-1077
Tashish va saqlash	170	77	-93
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	300	80	-220
Axborot va aloqa	47	80	33
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	55	59	4
Boshqa faoliyat turlari	232	166	-66

Ma'lumot uchun: 2020 – yilning yanvar – iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Farg'ona sh.	691	366	-325
Qo'qon sh.	530	329	-201
Marg'ilon sh.	449	281	-168
Oltiariq tumani	279	160	-119
Toshloq tumani	183	150	-33
Quva tumani	294	149	-145
Uchko'prik tumani	239	144	-95
Quvasoy sh.	148	125	-23
Bag'dod tumani	177	119	-58
Buvayda tumani	236	114	-122

2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Farg'ona shahrida – 366 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda






Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - iyun holatiga ko'ra*



2020 – yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Farg'ona shahrida 19,6 birlik, Qo'qon shahrida 17,2 birlik, Quvasoy shahida 16,8 birlik. Marg'ilon shahrida 15,4 birlik, Dang'ara tumanida 14,8 birlik, Furqat tumanida 14,8 birlik, Quva tumanida 14,2 birlikni tashkil etgan. Beshariq tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 6,8 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Farg'ona shahrida 19,6 birlik, Qo'qon shahrida 17,2 birlik, Quvasoy shahrida 16,8 birlik, Marg'ilon shahrida 15,4 birlik, Dang'ara tumanida 14,8 birlik, Furqat tumanida 14,8 birlik, Quva tumanida esa 14,2 birlikni tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Bundan ko'rinish turibdiki, Farg'ona shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Beshariq tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar - uyun holatiga ko'ra, % da

2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 61,5 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - iyunida 61,7 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Farg'ona viloyati	37,4	90,6	69,5	69,4
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	14,3	94,1	38,0	46,3
Qo'shon	24,2	75,3	88,6	58,1
Quvasoy	22,1	70,2	97,2	29,6
Marg'ilon	80,7	81,3	98,9	89,3
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	100,0	99,7	96,8	68,7
Qo'shtepa	100,0	99,7	99,4	25,7
Bag'dod	58,9	95,7	98,0	80,4
Buvayda	100,0	99,7	99,5	93,8
Beshariq	44,1	83,1	96,9	96,2
Quva	48,6	99,3	95,1	97,1
Uchko'rik	99,3	99,1	97,5	96,8
Rishton	74,3	96,8	92,5	81,0
So'x	100,0	99,9	99,0	59,1
Toshloq	12,9	99,4	95,9	97,7
O'zbekiston	80,8	99,5	98,7	96,8
Farg'ona	49,9	99,0	92,4	79,4
Dang'ara	100,0	94,7	98,4	96,7
Furqat	100,0	99,6	99,2	96,9
Yozyovon	100,0	68,4	99,6	56,9

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Oltiariq (100,0 %),
Qo'shtepa (100,0 %),
Buvayda (100,0 %),
So'x (100,0 %),
Dang'ara (100,0 %),
Furqat (100,0 %) va
Yozyovon (100,0 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

So'x (99,9 %),
Oltiariq (99,7 %),
Qo'shtepa (99,7 %),
Buvayda (99,7 %),
O'zbekiston (99,6 %),
Toshloq (99,4 %) va
Quva (99,3 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-

Yozyovon (99,6 %),
Buvayda (99,5 %),
Qo'shtepa (99,4 %),
Furqat (99,2 %),
So'x (99,0 %),
Marg'ilon sh. (98,9%)
va O'zbekiston (98,7 %)
tumanlarida.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar-iyunida

- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3538,4 mlrd.so'm (jami sanoat ishlab chiqarishning 37,4 % i) ni tashkil qildi;
- 2 3384,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 69,4 % i) o'zlashtirildi va 2019 - yilning yanvar-iyuniga nisbatan 100,9 % ni tashkil etdi;
- 3 2233,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 90,6 % i) bajarildi va 2019 - yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil qildi;
- 4 4180,6 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 69,5 % i), 2019 - yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 97,1 % ni tashkil qildi;
- 5 chakana savdo aylanmasi umumiyligi hajmining 89,9 % i yoki 6922,2 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 101,1 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6 146,4 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 58,7 % i) miqdorida mahsulotlar (ish va xizmatlar) eksport qilindi;
- 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 1,8 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 95,5 % i) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8 yo'lovchi aylanmasi esa 5,9 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 97,0 % i) kamaydi.




Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da




2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Oltiariq tumanida – 100,0 %, Qo'shtepa tumanida – 100,0 %, Bag'dod tumanida – 100,0 %, Buvayda tumanida – 100,0 %, So'x tumanida – 100,0 %, O'zbekiston tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 % ni, eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – 17,5 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Uchko'prik tumanida – 100,0 %, Dang'ara tumanida – 100,0 %, Yozyovon tumanida – 100,0 %, Furqat tumanida – 100,0 %, Buvayda tumanida – 100,0 %, Farg'ona tumanida – 98,5 %, O'zbekiston tumanida – 97,1 %. Eng past ko'rsatkich Qo'shtepa tumanida - 15,3 % ni tashkil etdi.




2020 – yilning yanvar –iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahri (471,6 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (457,8 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (356,9 mlrd. so'm), Margilon shahar (335,9 mlrd. so'm) va Dang'ara tumani (237,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (34,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko’ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oltiariq tumani (100,0%), Qo'shtepa tumani (100,0%), Buvayda tumani (100,0 %), So'x tumani (100,0%), Dang'ara tumani (100,0%), Furqat tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Uchko'prik tumani (99,3 %), O'zbekiston (80,8 %) tumanlari va Marg'ilon (80,7 %) shahri tashkil etdi. Toshloq tumanida (12,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg'ona shahri - 1567,9 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 %), Qo'qon shahri 952,6 mlrd. so'm (100,1 %), Marg'ilon shahri 721,6 mlrd. so'm (98,0 %) va Qo'shtepa tumani 380,2 mlrd. so'm (101,4%) ni tashkil etdi.



2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri - 647,5 mldr. so'm (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o'sish sur'ati 131,3 %), Marg'ilon shahri – 278,2 mldr. so'm (125,2 %), Bag'dod tumani – 146,6 mldr. so'm (173,9%), Qo'qon shahri – 142,6 mldr. so'm (114,1%) hamda Quva tumanida – 122,5 mldr. so'm (100,3 %) qayd etildi.





2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona shahri - 1029,7 mld. so'm (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o'sish sur'ati 82,3 %), Qo'qon shahri 678,3 mld. so'm (102,1%), Marg'ilon shahri 471,9 mld. so'm (106,4 %), Toshloq tumani 171,8 mld. so'm (129,7%), Oltiariq tumani 165,3 mld. so'm (163,4%) hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1277** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020 – yil II – chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 2,7 % (34 ta.), sanoatda – 21,9 % (280 ta), qurilishda – 11,3% (144 ta), savdoda – 35,4% (452 ta), xizmatlar sohasida – 28,7 % (367 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




**2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat xizmatlar sohasida 15,9 punktga, sanoat korxonalarida 14,7 punktga, savdoda 8,1 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 6,0 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda barcha faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda , barcha faoliyatda, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 1,3 punktga, savdo korxonalarida 1,0 punktga oshdi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da





2020 – yilning II choragi yakunlariga ko'rta yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 138 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 32 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 23,2 % i), qurilish – 11 ta (8,0 % i), savdo – 59 ta (42,8 % i), xizmatlar – 26 ta (18,8 % i) va qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 10 ta (7,2 % i).


2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar



2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qurilish korxonalarida 3,8 punktga oshgan bo'lsa, qolgan faoliyat turlari bo'yicha pasayish kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qurilish korxonalarida 16,1 punktga pasaygan bo'lsa, qolgan barcha faoliyat turlari bo'yicha o'sish kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda sanoatda 1,8 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1,1 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatilgan bo'lib, xizmatlar sohasi (2,2 punktga), qurilish (12,3 punktga) va savdo (4,9 punktga) korxonalarida iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

2019 – 2020 – yillar II chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020 – yilning II choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, barcha faoliyat turlarida, yaqin uch oydagি iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 2,4 punktga kamaydi.



2019 – 2020 – yil II choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

